



**THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF  
INFORMATION AND PSYCHOLOGICAL SECURITY IN THE  
SYSTEM OF POLITICAL COMMUNICATION**

**Turdiboyeva Madina Rusul qizi**

4th-year Student, Political Science Program Faculty of Social Sciences National  
University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

**Abstract**

This article comprehensively analyzes the theoretical and methodological foundations of ensuring information and psychological security in the political communication system. Within the framework of the study, new threats and risks arising in the context of modern transformations of political communication, the expansion of the digital environment and the globalization of information flows are studied on the basis of a systematic approach. Also, the interrelation of the categories of information security and psychological stability, the mechanisms of their influence on political consciousness, social opinion and public mood are theoretically substantiated.

**Keywords**

Political communication, information security, psychological security, network society, information flow, political consciousness, public opinion, information manipulation, disinformation, propaganda, digital media, cybersecurity, communication system, political stability, social psychology, mass self-communication, information warfare, media influence, political technologies, interdisciplinary approach.

**SIYOSIY KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA AXBOROT VA PSIXOLOGIK  
XAVFSIZLIKNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.**

*Turdiboyeva Madina Rusul qizi*

*Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston Milliy Unversiteti Ijtimoiy fanlar  
fakulteti Siyosatshunoslik yo`nalishi 4-bosqich talabasi*





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlikni ta'minlashning nazariy-metodologik asoslari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida siyosiy kommunikatsiyaning zamonaviy transformatsiyalari, raqamli muhitning kengayishi hamda axborot oqimlarining globallashuvi sharoitida yuzaga kelayotgan yangi tahdid va xatarlar tizimli yondashuv asosida o'rganiladi. Shuningdek, axborot xavfsizligi va psixologik barqarorlik kategoriyalarining o'zaro bog'liqligi, ularning siyosiy ong, ijtimoiy fikr va jamoatchilik kayfiyatiga ta'sir mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab beriladi.

**Kalit so'zlar:** Siyosiy kommunikatsiya, axborot xavfsizligi, psixologik xavfsizlik, tarmoq jamiyati, axborot oqimi, siyosiy ong, jamoatchilik fikri, axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya, propaganda, raqamli media, kiberxavfsizlik, kommunikatsion tizim, siyosiy barqarorlik, ijtimoiy psixologiya, mass self-communication, axborot urushi, media ta'sir, siyosiy texnologiyalar, fanlararo yondashuv.

**Аннотация:** В данной статье всесторонне анализируются теоретические и методологические основы обеспечения информационной и психологической безопасности в системе политической коммуникации. В рамках исследования на основе системного подхода изучаются новые угрозы и риски, возникающие в контексте современных трансформаций политической коммуникации, расширения цифровой среды и глобализации информационных потоков. Также теоретически обосновывается взаимосвязь категорий информационной безопасности и психологической устойчивости, механизмы их влияния на политическое сознание, общественное мнение и общественное настроение.

**Ключевые слова:** Политическая коммуникация, информационные и коммуникационные технологии, информационные документы, сетевое общество, политика, экономическая мысль, манипулирование информацией, дезинформация, пропаганда, СМИ, кибербезопасность, коммуникационная



система, политическая физичность, социальная психология, массовая самокоммуникация, информационная война, влияние СМИ, экономика, междисциплинарная экономика.

**Kirish.** Bugungi global transformatsiya jarayonlarida siyosiy kommunikatsiya nafaqat axborot almashish vositasi, balki davlat xavfsizligini ta'minlovchi strategik resursga aylandi. Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi siyosiy maydonda "gibrid urushlar" va "kiber-siyosat" tushunchalarini birinchi planga olib chiqdi. Endilikda davlatning barqarorligi nafaqat uning harbiy qudrati, balki axborot makonini himoya qilish va jamiyatning psixologik chidamliligini (immunitetini) ta'minlash qobiliyati bilan o'lganmoqda.

Muammoning qo'yilishi va amaliy misollar:

Siyosiy kommunikatsiya tizimidagi zaifliklar jamiyatda ijtimoiy-siyosiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Buni biz quyidagi amaliy misollarda ko'rishimiz mumkin:

Dezinformatsiya va "Feyk" xabarlar: Masalan, saylov jarayonlarida ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan yolg'on ma'lumotlar elektoratning irodasiga manipulyativ ta'sir ko'rsatadi. Bu esa siyosiy tizimning legitimligiga putur yetkazadi.

Psixologik operatsiyalar: "Rangli inqiloblar" tajribasi shuni ko'rsatadiki, tashqi kuchlar maqsadli axborot xurujlari orqali aholi, ayniqsa yoshlar o'rtasida davlatga nisbatan ishonchsizlik va aggresiv kayfiyatni shakllantirishi mumkin.

Kiber-tahdidlar: Davlat ahamiyatiga molik ma'lumotlar bazasiga hujum qilish yoki davlat arboblarning axborot kanallarini nazoratga olish orqali siyosiy qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'sir o'tkazish xavfi ortib bormoqda.

XXI asrning birinchi choragiga kelib, axborot nafaqat bilim manbai, balki xalqaro munosabatlar va ichki siyosiy jarayonlarning asosiy quroliga aylandi. Siyosiy kommunikatsiya tizimi bugun shunchaki davlat va jamiyat o'rtasidagi muloqot maydoni emas, balki "axborot-psixologik poligon" ko'rinishini olmoqda. Global tarmoqlashuv





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

sharoitida axborot xavfsizligi tushunchasi texnik himoyadan (kiberxavfsizlik) ko'ra ko'proq inson ongi va psixologik barqarorligini himoya qilish (psixologik xavfsizlik) darajasiga ko'tarildi.

Hozirgi kunda siyosiy tizimlarga qarshi yo'naltirilgan tahdidlar "qattiq kuch"dan (harbiy qudrat) "yumshoq kuch" (mafkuraviy ta'sir) va "aqli kuch" (texnologik va psixologik manipulyatsiya) simbioziga o'tmoqda. Bu esa milliy xavfsizlik kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Maqolada axborot-psixologik tahdidlarning zamonaviy ko'rinishlarini quyidagi real strategiyalar misolida ko'rish mumkin. "Post-haqiqat" (Post-truth) va hissiyotlar manipulyatsiyasi:

Bugungi siyosiy kommunikatsiyada faktlardan ko'ra hissiyotlarga murojaat qilish ustunlik qilmoqda. Amaliy misol: 2016-yilgi AQSh prezidentlik saylovlari va Buyuk Britaniyaning "Brexit" jarayonida Cambridge Analytica skandali. Bunda foydalanuvchilarning psixologik profillari asosida ularning qo'rquv va orzulariga moslashtirilgan "mikrotargeting" reklamalari ishlatildi. Bu siyosiy qaror qabul qilish jarayonida shaxsning psixologik daxlsizligi buzilganining yaqqol misolidir.

Gibrid urushlar va ijtimoiy parchalanish: Axborot xurujlari jamiyatni ichkaridan parchalashga, etnik, diniy yoki ijtimoiy guruhlar orasiga nifoq solishga qaratiladi. Amaliy misol: Yaqin Sharq mamlakatlaridagi "Arab bahori" voqealari. Ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Twitter) orqali tarqatilgan "axborot viruslari" aholini hissiy qo'zg'atish va davlat institutlariga nisbatan umumiy ishonchsizlikni shakllantirishda asosiy katalizator bo'ldi. Bu jarayonda axborot texnik vosita, psixologik ta'sir esa strategik maqsad edi.

"Chuqur feyk" (Deepfake) va vizual manipulyatsiya: Sun'iy intellekt yordamida yaratilgan soxta video va audio materiallar siyosiy arboblarning obro'sizlanishiga yoki diplomatik mojarolarga sabab bo'lishi mumkin. Amaliy misol: Turli mamlakatlar rahbarlarining urush yoki taslim bo'lish haqidagi soxta bayonotlari ijtimoiy tarmoqlarda





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

tarqalishi jamiyatda bir necha soat ichida vahima (panika) keltirib chiqarishi, bu esa psixologik xavfsizlikning texnologik tahdidlar oldida zaifligini ko'rsatadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mazkur mavzu bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlik masalalari fanlararo yondashuv asosida shakllanib, u siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, axborot texnologiyalari va ijtimoiy psixologiya kesishgan nuqtada rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya sharoitida axborot oqimlarining tezlashuvi va ularning ongga ta'sir kuchining ortishi mazkur muammoni yanada dolzarb etmoqda.

Harold Lasswellning siyosiy kommunikatsiya modeli siyosatni axborot orqali jamiyat ongi va xulq-atvorini boshqarish jarayoni sifatida tavsiflaydi. Uning besh bosqichli formulasi (Kim? Nimani? Qaysi kanal orqali? Kimga? Qanday natija bilan?) muloqotni tizimli tahlil qilish imkonini beradi va asosiy e'tiborni xabarning samaradorligiga, ya'ni auditoriyaga ko'rsatgan aniq ta'siriga qaratadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, siyosiy hokimiyat tushunchasi axborot oqimini nazorat qilish va manipulyatsiya qilish qobiliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, muloqot jarayoni faqat ko'zlangan ijtimoiy-siyosiy natijaga erishilgandagina muvaffaqiyatli hisoblanadi.[1] Mening fikrimcha, ushbu model siyosiy kommunikatsiyaning "texnologik" tomonini juda aniq ochib beradi - ya'ni kim axborotni qanday uzatadi va qanday effektga erishadi. Lekin zamonaviy sharoitda kommunikatsiya bir yo'nalishli ta'sir emas, balki interaktiv, ko'p markazli va qayta aloqaga asoslangan jarayonga aylangan. Ayniqsa, raqamli muhitda auditoriya endi passiv qabul qiluvchi emas, balki axborotni qayta ishlab, tarqatuvchi va hatto siyosiy kun tartibini shakllantiruvchi subyektga aylangan. Shu sababli, siyosiy hokimiyatni faqat axborotni nazorat qilish qobiliyati bilan bog'lash yetarli emas. Unga qo'shimcha ravishda ishonchni shakllantirish, legitimlikni mustahkamlash va ochiq muloqotni yo'lga qo'yish kabi omillar ham muhim ahamiyat





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

kasb etadi. Aks holda, qisqa muddatli kommunikativ samaradorlik uzoq muddatli ijtimoiy ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Manuel Castellsning "Communication Power" asari raqamli asrda hokimiyat tushunchasi jismoniy kuchdan ko'ra ko'proq insonlar ongini nazorat qilish va axborot oqimlarini boshqarishga ko'chganini asoslab beradi. Muallif tarmoq jamiyatida hokimiyatning to'rt turini, xususan, tarmoqqa kirishni belgilovchi hamda turli tarmoqlar o'rtasidagi aloqalarni ulovchi kuchlarni tahlil qilib, siyosiy hukmronlik endi faqat an'anaviy institutlar orqali emas, balki "mass self-communication" (ommaviy o'z-o'zini muloqot qilish) ya'ni ijtimoiy tarmoqlar vositasida har bir shaxs tomonidan yaratiladigan axborot maydonida shakllanishini ta'kidlaydi. Asarning markaziy g'oyasiga ko'ra, zamonaviy dunyoda haqiqiy hokimiyat muloqot tarmoqlarini "dasturlash" qobiliyatiga ega bo'lgan subyektlar qo'lida to'planadi va bu jarayonda ijtimoiy harakatlar aksilhokimiyat sifatida raqamli platformalar orqali hukmron mafkuraga qarshi tura olish imkoniyatiga ega bo'ladi.[2] Mening fikrimcha, Castells tomonidan ilgari surilgan "Communication Power" konsepsiyasi zamonaviy siyosiy jarayonlarni tushinishda nihoyatda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, hokimiyatning kommunikatsion tarmoqlarni "dasturlash" va axborot oqimlarini boshqarish orqali namoyon bo'lishi haqidagi g'oya bugungi raqamli jamiyat realiyatiga to'liq mos keladi. Chunki hozirgi sharoitda siyosiy ustunlik ko'p hollarda resurslar yoki majburlov vositalaridan ko'ra, jamoatchilik ongida ma'lum tasavvurlarni shakllantirish va ularni keng tarqatish qobiliyati bilan belgilanadi. Shu bilan birga, "mass self-communication" fenomeni jamiyat a'zolariga axborot ishlab chiqaruvchi subyekt sifatida chiqish imkonini berib, siyosiy kommunikatsiyani sezilarli darajada demokratlashtiradi. Biroq, mening nazarimda, bu jarayonni mutlaq erkinlik sifatida baholash biryoqlama bo'lishi mumkin. Chunki raqamli platformalardagi algoritmik boshqaruv, axborotning filtrlash mexanizmlari va media makonidagi notekis imkoniyatlar ayrim subyektlarning ustunligini saqlab qolmoqda.



Bundan kelib chiqib, aytish mumkinki, zamonaviy hokimiyat ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan u markazlashmagan va tarmoqli shaklga ega bo'lib, keng ommaga ta'sir imkonini beradi, ikkinchi tomondan esa u yashirin tarzda algoritmik va institutsional mexanizmlar orqali boshqarilib turadi. Shu sababli, ijtimoiy harakatlarning aksilhokimiyat sifatidagi salohiyati mavjud bo'lsa-da, ularning real siyosiy natijaga erishishi ko'p jihatdan ushbu murakkab tizimni qay darajada anglay olishi va undan samarali foydalana olishiga bog'liq.

Ganiyevaning "Siyosiy munosabatlar tizimida axborot xavfsizligi" asari global axborotlashuv sharoitida davlatning siyosiy barqarorligini ta'minlash va axborot xurujlaridan himoyalaniş masalalariga bag'ishlangan. Muallif axborot xavfsizligini nafaqat texnik himoya, balki milliy xavfsizlikning tarkibiy qismi va siyosiy suverenitetni saqlash vositasi sifatida tahlil qiladi. Asarda siyosiy munosabatlar jarayonida axborot manipulyatsiyasi, "axborot urushlari" va psixologik operatsiyalarning jamiyat ongi hamda davlat boshqaruviga salbiy ta'siri yoritilgan. Ganiyeva axborot makonini siyosiy manfaatlar to'qnashadigan strategik maydon deb hisoblab, unda milliy manfaatlarni himoya qilish uchun huquqiy, siyosiy va mafkuraviy mexanizmlarni takomillashtirish zarurligini asoslaydi. Xususan, asarda yoshlar ongini yot g'oyalardan asrash, siyosiy institutlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini xavfsiz qondirish va xalqaro axborot maydonida mamlakatning ijobiy imijini shakllantirish strategiyalari muhim o'rin egallaydi.[3] Mening fikrimcha, Ganiyeva tomonidan axborot xavfsizligini keng ma'noda - ya'ni faqat texnik himoya emas, balki siyosiy barqarorlik va milliy suverenitetning ajralmas qismi sifatida talqin qilinishi juda dolzarb va metodologik jihatdan asosli yondashuvdir. Ayniqsa, global axborotlashuv sharoitida davlatlar o'rtasidagi raqobat tobora ko'proq axborot makoniga ko'chib borayotganini inobatga olsak, bu fikr yanada ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, muallifning axborot makonini strategik maydon sifatida baholashi ham o'rinli, chunki bugungi kunda siyosiy manfaatlar nafaqat iqtisodiy yoki harbiy vositalar orqali, balki axborot va psixologik





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

ta'sir orqali ham ilgari surilmoqda. Biroq, mening nazarimda, bu jarayonda faqat himoya choralariga urg'u berish yetarli emas. Axborot xavfsizligini ta'minlash bilan bir qatorda, ochiq va ishonchli kommunikatsiya muhitini shakllantirish ham muhimdir. Chunki ortiqcha nazorat yoki cheklovlar ayrim hollarda aks ta'sir ko'rsatib, jamiyatda ishonchsizlikni kuchaytirishi mumkin. Bundan tashqari, yoshlarni "yot g'oyalar"dan himoya qilish masalasida ham muvozanatli yondashuv zarur, deb hisoblayman. Ya'ni, faqat cheklash yoki filtratsiya emas, balki tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali ularning axborotni mustaqil tahlil qilish qobiliyatini oshirish uzoq muddatda samaraliroq natija beradi.

Bahodir Eshbekov tadqiqotlarida siyosiy kommunikatsiya tizimi jamiyat siyosiy hayotining ajralmas elementi sifatida talqin qilinib, uning asosiy funksiyasi axborot almashuvi orqali siyosiy ong va siyosiy madaniyatni shakllantirishdan iborat ekanligi ta'kidlanadi. Olimning fikricha, siyosiy kommunikatsiya — bu davlat organlari, fuqarolar va ommaviy axborot vositalari o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlovchi muhim mexanizm bo'lib, u jamiyatda demokratik qadriyatlarning qaror topishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.[4]

Muallif siyosiy axborot almashuvini faqat ma'lumot uzatish jarayoni sifatida emas, balki fuqarolarning siyosiy tafakkurini shakllantiruvchi, ularning ijtimoiy faolligini oshiruvchi va jamoatchilik fikrini yo'naltiruvchi omil sifatida baholaydi. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari va zamonaviy kommunikatsiya kanallarining rivojlanishi siyosiy jarayonlarning ochiqligi va samaradorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishi alohida qayd etiladi.

Mening fikrimcha, Eshbekovning ushbu yondashuvi siyosiy kommunikatsiyani faqat boshqaruv yoki ta'sir vositasi sifatida emas, balki jamiyat va davlat o'rtasidagi ikki tomonlama muloqot tizimi sifatida ko'rishga imkon beradi. Bu esa uni Lasswell yoki propagandaga asoslangan yondashuvlardan farqli ravishda, ko'proq demokratik va interaktiv modelga yaqinlashtiradi. Shu bilan birga, bu qarashni yanada boyitish uchun





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

zamonaviy raqamli muhitdagi dezinformatsiya, axborot manipulyatsiyasi va psixologik taʼsir omillarini ham qoʻshimcha ravishda hisobga olish zarur, deb hisoblayman.

Ijtimoiy va psixologik xavfsizlik masalalarini oʻrganishda Tuxtamurod Mamatov ilmiy qarashlari eʼtiborga loyiqdir. Olim global axborot makonida yuzaga kelayotgan tahdidlar, xususan, yoshlar ongiga salbiy axborot taʼsiri, mafkuraviy xurujlar va psixologik bosim masalalarini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, zamonaviy axborot muhitida shaxsning psixologik barqarorligini taʼminlash jamiyat xavfsizligining muhim komponenti hisoblanadi.[5] Mening nazarimda, Mamatovning yondashuvi ayniqsa siyosiy kommunikatsiyada psixologik xavfsizlikni tushunishda muhim, biroq bu jarayonda faqat himoya emas, balki media savodxonlik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ham alohida eʼtibor qaratish lozim.

Le Bonning fikricha, omma tarkibida insonlar individual ratsionallikni qisman yoʻqotadi va “kollektiv ong” taʼsiriga tushadi. Bunday holatda hissiyotlar aql ustidan ustunlik qiladi, odamlar esa suggestiya (taʼsirga beriluvchanlik) va emotsional yuqumlilikka moyil boʻladi. Shu sababli omma sharoitida tez tarqaladigan gʻoyalar koʻproq hissiy, soddalashtirilgan va obrazli boʻlishi kerak, murakkab mantiqiy tahlillar esa kamroq taʼsir qiladi.[6] Siyosiy kommunikatsiya nuqtayi nazaridan Le Bon ommaviy ongni boshqarishda liderlar va propaganda vositalarining rolini juda muhim deb hisoblaydi. Uningcha, siyosiy yetakchilar ommani boshqarishda takrorlash, shiorlar va obrazli tasvirlardan foydalanadi, chunki omma mantiqdan koʻra hissiyotga tez javob beradi. Shu jihatdan, uning qarashlari keyinchalik propaganda nazariyalari va manipulyativ kommunikatsiya tadqiqotlariga asos boʻlib xizmat qilgan.

Adabiyotlar tahlili nuqtayi nazaridan Le Bon gʻoyalari shuni koʻrsatadiki, siyosiy jarayonlarda axborot faqat ratsional bilim uzatish vositasi emas, balki psixologik taʼsir va emotsional boshqaruv instrumentidir. Mening fikrimcha, uning yondashuvi bugungi raqamli muhitda ham dolzarbligini yoʻqotmagan, chunki ijtimoiy tarmoqlarda axborotning tez tarqalishi aynan hissiy reaksiyalar orqali kuchayadi. Biroq zamonaviy





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

sharoitda omma faqat passiv emas, balki faol ishtirokchi bo'lgani uchun Le Bon modeli raqamli interaktivlik bilan to'ldirilishi zarur.

**Tadqiqotning metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlikni o'rganish kompleks, fanlararo yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqotning metodologik asosini siyosatshunoslik, kommunikatsiya nazariyasi, ijtimoiy psixologiya hamda axborot xavfsizligi fanlari kesishmasida shakllangan nazariy konsepsiyalar tashkil etadi. Tadqiqotda birinchi navbatda tizimli yondashuv qo'llanildi. Ushbu yondashuv siyosiy kommunikatsiyani o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan yaxlit tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi. Shu orqali axborot oqimi, siyosiy subyektlar va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir mexanizmlari kompleks holda o'rganildi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil usuli yordamida xorijiy va mahalliy ilmiy qarashlar solishtirildi. Xususan, klassik siyosiy kommunikatsiya modellari (Lasswell, McLuhan) bilan zamonaviy tarmoq jamiyati nazariyalari (Castells) o'rtasidagi farqlar va o'xshashliklar aniqlanib, ularning axborot xavfsizligi masalasiga ta'siri baholandi. Bu yondashuv nazariy qarashlarning evolyutsiyasini tushunishga xizmat qildi. Tadqiqot jarayonida kontent tahlili (content analysis) usuli ham qo'llanildi. Ilmiy adabiyotlar, monografiyalar va ilmiy maqolalarda keltirilgan asosiy g'oyalar tizimlashtirilib, ularning siyosiy kommunikatsiya va psixologik xavfsizlikka oid mazmuniy yo'nalishlari ajratib olindi. Bu usul axborot manipulyatsiyasi, dezinformatsiya va psixologik ta'sir mexanizmlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Bundan tashqari, sistem-struktur tahlil orqali siyosiy kommunikatsiya tizimining asosiy elementlari - axborot ishlab chiqaruvchi subyektlar, tarqatish kanallari va qabul qiluvchi auditoriya o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi. Ushbu yondashuv axborot xavfsizligining siyosiy barqarorlikdagi rolini chuqurroq tushunishga imkon berdi.

Tadqiqotda induksiya va deduksiya usullari ham qo'llanildi. Induktiv yondashuv orqali alohida ilmiy qarashlar asosida umumiy xulosalar shakllantirilgan bo'lsa,





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

deduktiv usul yordamida mavjud nazariy konsepsiyalar real siyosiy kommunikatsiya jarayonlariga tatbiq etildi. Shuningdek, interdisciplinar (fanlararo) yondashuv asosida siyosiy kommunikatsiya faqat siyosiy jarayon sifatida emas, balki psixologik ta'sir, axborot xavfsizligi va ijtimoiy ong shakllanishi bilan uzviy bog'liq tizim sifatida tahlil qilindi. Umuman olganda, tanlangan metodologik yondashuvlar siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot va psixologik xavfsizlik masalasini ko'p qatlamli, dinamik va murakkab jarayon sifatida ilmiy asosda o'rganish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar.** Siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni tahlil qilish jarayonida, eng avvalo, S. Kara-Murza tomonidan ilgari surilgan ongni manipulyatsiya qilish texnologiyalarining zamonaviy interpretatsiyasiga e'tibor qaratish lozim. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bugungi kunda axborot xurujlari insonning mantiqiy tafakkuriga emas, balki uning hissiy bazasiga, ya'ni qo'rquv, g'azab va qat'iy ishonch kabi tuyg'ulariga yo'naltirilgan. Amaliy misol sifatida ijtimoiy tarmoqlardagi "filtr pufakchalari" (filter bubbles) effektini keltirish mumkin; bunda Manuel Kastelsning tarmoqlashgan jamiyat nazariyasiga ko'ra, algoritmlar foydalanuvchiga faqat uning siyosiy qarashlariga mos keladigan axborotni taqdim etadi. Bu esa jamiyatda qutblashishni keltirib chiqarib, muqobil fikrlarga nisbatan psixologik toqatsizlikni shakllantiradi va pirovardida siyosiy tizimning barqarorligiga rahna soladi.

Ushbu muammoning nazariy-metodologik yechimi sifatida G. Pocheptsovning psixologik operatsiyalar metodologiyasiga tayanib, bir necha amaliy takliflarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, "reaktiv aks-targ'ibot" modelidan "proaktiv axborot kun tartibi" modeliga o'tish zarur. Bu shuni anglatadiki, davlat kommunikatsiya organlari feyk xabarlariga raddiya berish bilan cheklanib qolmasdan, jamiyatning qadriyatlar tizimiga mos keladigan jozibador va ishonchli kontentni birinchi bo'lib taqdim etishi lozim. Ikkinchidan, neyromarketing va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalangan holda ijtimoiy kayfiyatni doimiy monitoring qilish tizimini yaratish amaliy natija beradi. Bunday tizim ijtimoiy tarmoqlardagi sun'iy yaratilgan vahima oqimlarini (bot-





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

hujumlarni) dastlabki bosqichdayoq aniqlash va ularni algoritmlar darajasida neytrallashtirish imkonini beradi.

Amaliy tahlillar shuni tasdiqlaydiki, eng samarali himoya mexanizmi bu - fuqarolarda "kognitiv filtr" yoki psixologik immunitetni shakllantirishdir. Tadqiqot doirasida taklif etilayotgan yechim ta'lim tizimiga media-savodxonlikning amaliy kurslarini integratsiya qilishni nazarda tutadi. Bunda fuqarolarga axborotning manbasini tekshirish, "chuqur feyk" (deepfake) texnologiyalarini farqlash va siyosiy diskursdagi yashirin manipulyatsiyalarni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalari o'rgatiladi. Natijada, jamiyat tashqi axborot xurujlari oldida passiv ob'ektdan ongli sub'ektga aylanadi. Shunday qilib, siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash nafaqat texnik cheklovlar, balki jamiyatning intellektual salohiyatini oshirish va davlat bilan xalq o'rtasidagi ishonchli muloqot kanallarini mustahkamlash orqali amalga oshirilishi metodologik jihatdan isbotlangan hisoblanadi.

M. Ganiyevaning yondashuvidan kelib chiqib, tahlillarimiz quyidagi amaliy yechimlarni ilgari suradi: Kommunikator (Kim?) darajasida yechim: Davlat va siyosiy institutlar axborot maydonida "reaktiv" (faqat xurujga javob beruvchi) emas, balki "proaktiv" (tashabbusni qo'lga oluvchi) strategiyaga o'tishi shart. Bu degani, har qanday siyosiy qaror qabul qilinishidan oldin uning psixologik ta'siri prognoz qilinishi va tushuntirish ishlari oldindan boshlanishi lozim.

Xabar (Nimani?) darajasida yechim: Axborot xavfsizligini ta'minlashda "kontr-propaganda" (raddiya berish) uslubi o'z samarasini yo'qotmoqda. Buning o'rniga Castellsning "tarmoq kuchi" nazariyasiga tayanib, jamiyatda ijobiy siyosiy qadriyatlarni targ'ib qiluvchi sifatli va raqobatbardosh "milliy kontent" yaratish lozim. Bu aholining manipulyativ xabarlarga nisbatan tanqidiy tafakkurini (media-savodxonligini) shakllantiradi.

Kanal va Auditoriya (Qaysi kanal orqali? Kimga?) darajasida yechim: Ijtimoiy tarmoqlardagi "axborot pufakchalari" va "feyk" xabarlarga qarshi kurashish uchun





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

sun'iy intellektga asoslangan monitoring tizimlarini joriy etish zarur. Ganiyeva ta'kidlaganidek, yoshlar auditoriyasi bilan ishlashda an'anaviy OAVdan ko'ra, norasmiy tarmoq kanallaridan foydalanish siyosiy muloqotning samarasini oshiradi.

Tizimli natija: Axborot-psixologik xavfsizlik — bu yopiqlik emas, balki ochiqlik orqali erishiladigan barqarorlikdir. Tadqiqot natijasi shuni ko'rsatadiki, jamiyat axborotdan qanchalik to'g'ri va tezkor xabardor qilinsa, tashqi psixologik bosimlarga shunchalik chidamli bo'ladi. Bu o'z navbatida davlatning siyosiy munosabatlar tizimidagi suverenitetini mustahkamlaydi.

**Xulosa.** Siyosiy kommunikatsiya tizimida axborot-psixologik xavfsizlikni ta'minlashning nazariy va amaliy asoslarini o'rganish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, zamonaviy siyosiy jarayonlar axborotning shunchaki uzatilishini emas, balki uning jamiyat tomonidan qanday interpretatsiya qilinishini boshqarishni talab etadi. Bugungi kunda xavfsizlik tushunchasi an'anaviy chegaralardan chiqib, kiberfazo va inson ongi tutashgan nuqtaga ko'chgan. Bu shuni anglatadiki, davlatning siyosiy barqarorligi endi faqat jismoniy mudofaa bilan emas, balki axborot maydonidagi raqobatbardoshlik va jamiyatning tashqi manipulyatsiyalarga nisbatan psixologik chidamliligi bilan o'lchanadi. Axborot oqimlarining globallashuvi sharoitida milliy axborot makonini yopish yoki cheklash strategiyasi o'zini oqlamaydi, aksincha, bu "axborot vakuumini" keltirib chiqarib, uni yot g'oyalar bilan to'lishiga zamin yaratadi.

Tadqiqotning metodologik natijalari shuni ko'rsatadiki, samarali axborot xavfsizligi tizimi uch darajali himoya mexanizmiga ega bo'lishi shart. Birinchi darajada davlatning ochiq va shaffof muloqot kanallari orqali ishonchli axborotni birinchi bo'lib taqdim etishi (axborot ustuvorligi), ikkinchi darajada jamiyatda media-savodxonlik va tanqidiy tahlil madaniyatini shakllantirish (ijtimoiy immunitet), uchinchi darajada esa milliy va ma'naviy qadriyatlarga asoslangan jozibador mafkuraviy kontentni ishlab chiqish (kontr-manipulyatsiya) turishi lozim. Bu yondashuv axborot xurujlarini nafaqat qaytarish, balki ularning ijtimoiy-siyosiy ta'sirini nolga tushirish imkonini beradi.





**JOURNAL OF  
SCIENCE AND INNOVATIVE RESEARCH STUDIES  
VOLUME-1, ISSUE-6, 2026**

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash lozimki, axborot-psixologik xavfsizlik - bu dinamik jarayon bo'lib, u doimiy ravishda texnologik va ijtimoiy o'zgarishlarga moslashib borishni talab qiladi. Siyosiy kommunikatsiya tizimini takomillashtirishda asosiy e'tibor aholining turli qatlamlari, ayniqsa yoshlar bilan ishlashning norasmiy va interaktiv usullariga qaratilishi kerak. Davlat va jamiyat o'rtasidagi axborot almashinuvi faqat bir tomonlama ko'rsatma berishdan iborat bo'lmasdan, doimiy qayta aloqa mexanizmiga ega bo'lgandagina, siyosiy tizim har qanday axborot urushlari va psixologik operatsiyalar sharoitida o'zining strategik mustahkamligini saqlab qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Lasswell H. D. The Structure and Function of Communication in Society. // The Communication of Ideas. – New York: Harper and Row, 1948. – P. 37-51.
2. Castells M. Communication Power. – Oxford; New York: Oxford University Press, 2009.
3. Ganiyeva M. S. Siyosiy munosabatlar tizimida axborot xavfsizligi. – T.: «Fan va texnologiya», 2013. – 160 b.
4. Eshbekov B. Siyosiy kommunikatsiya va siyosiy madaniyat masalalari. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2020. – 25–98-bet
5. Mamatov T. Global axborotlashuv sharoitida ijtimoiy va psixologik xavfsizlik. Toshkent: "Ma'naviyat" nashriyoti, 2021. – 18–110-bet
6. Le Bon G. The Crowd: A Study of the Popular Mind. London: T. Fisher Unwin, 1895. – 1–150-bet

